

## “SHER BILAN DURROJ” HIKOYATINI RIVOJLANTIRUVCHI TA’LIM TEXNOLOGIYASI ASOSIDA O‘QITISH

Muxammadiyeva Moxicehra

ToshDO‘TAU magistranti

### ANNOTATSIYA

*Maqolada Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonidan olingan parcha “Sher bilan durroj” hikoyatini 5-sinf o‘quvchilariga rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalari asosida o‘qitish, turli xil usullardan foydalanish orqali darsni samarali tashkil etish masalasi ochib berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** Inkorporatsiya, moslashuvchanlik, uyg‘unlik, yaratuvchanlik, tabiiylikka asoslanish, metod

### ABSTRACT

*The article deals with the issue of effective organization of the lesson using a variety of methods, teaching 5th grade students the story " Durroj and a lion" from Alisher Navoi's epic "Hayrat ul-abror".*

**Keywords:** Incorporation, flexibility, harmony, creativity, naturalness, method

### АННОТАЦИЯ

*В статье рассматривается вопрос эффективной организации урока с использованием разнообразных методик обучения учащихся 5-х классов рассказу «Дурраж и лев» из эпоса Алишера Навои «Хайрат ул-аброр».*

**Ключевые слова:** Инкорпорация, гибкость, гармония, творчество, естественность, метод.

### KIRISH

Pedagogik texnologiya kafolatli ta’lim-tarbiya maqsadiga erishish bilan ahamiyatli va dolzarbdir. Bolaning aqliy qobiliyatini har tomonlama shakllantirish – rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalarining asosi hisoblanadi.

Rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalariga o‘quvchi shaxsining ijobiy sifatlarini, ayrim sohalardagi bilimlarini, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish metodlari kiradi. Rivojlantiruvchi ta’lim nazariyasi I.G. Pestalozzi, A. Disterveg, K.D. Ushinskiy va boshqalar tomonidan o‘rganilgan. Bu texnologiyaning ilmiy asoslanishi L.S.Vigotskiyning asarlarida berilgan.

### Rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyasining yetakchi tamoyillari:

**Inkorporatsiya** (tizimli faoliyat ko‘rsatish) – adabiyot darslarida badiiy asarlarni adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan ilmiy, badiiy jihatdan esa san’at darajasida tahlil qilish orqali adabiy-nazariy bilimlarni umumlashtirish;

**Moslanuvchanlik** – adabiyot fanini ta’lim shakli, metodi va usullarining turli ta’lim muassasalarida qo’llanilishi;

**Uyg‘unlik** – adabiyotshunoslikka oid o‘quv materiali mazmunini shaxsni rivojlantirish shakl, metod va usullari bilan uyg‘unlikda olib borish;

**Yaratuvchanlik** – adabiy ta’lim jarayonida fanning, qolaversa, o‘rganilayotgan badiiy asarning mazmun-mohiyatidan hamda o‘quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda turli ta’lim muassasalari pedagoglarning innovatsion texnologiyalarni yaratish imkoniyatlari;

**Tabiiylikka asoslanish** – genetik va ijtimoiy jihatlarga muvofiq o‘quvchilarning o‘ziga xos, shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish<sup>1</sup>ni nazarda tutadi.

Yuqoridagilarning barchasi ta’lim jarayonidagi o‘zaro bog‘liq uchlik – ta’lim, tarbiya va shaxs rivojlanishini o‘zida mujassam etadiki, bu bevosita “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun talablariga ham mos tushadi. Shulardan kelib chiqib, Alisher Navoiyning „Hayrat ul-abror” dostonida berilgan “Sher bilan durroj” hikoyatini rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalari asosida o‘rganib chiqamiz.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Alisher Navoiyning «Xamsa» asariga kirgan birinchi doston «Hayrat ul-abror», ya’ni «Yaxshi kishilarning hayratlanishi» deb nomlanadi. Mazkur doston 63 bob, 20 ta maqolatdan tashkil topgan. Har bir maqolat bir mavzuga bag‘ishlangan bo‘lib, shoir, avvalo, o‘quvchini bu mavzu bilan tanishtiradi. So‘ngra o‘sha mavzuga munosabat bildirib, uni har jihatdan tasvirlaydi. O‘quvchining tasavvurlari aniq bo‘lishi uchun bog‘bon va dehqonning ishini misol keltiradi. Har bir inson o‘ziga to‘g‘rilikni odat qilmog‘i haqida so‘z yuritib, kimki to‘g‘rilik yo‘li qanday ekanligini bilmoqchi bo‘lsa, bu yo‘l ikki xil bo‘ladi. Birinchisi, to‘g‘riso‘z odam. Agar u to‘g‘ri so‘zli bo‘lsa, uning ishi, o‘zi ham to‘g‘ri bo‘lishi kerak. Ikkinci toifa kishilar andisha bilan, betgachoparlik qila olmay, «to‘g‘ri» deguvchilardir. Navoiy birinchi toifani to‘liq ma’qullagan holda, ikkinchisi ham «yomon emas» deya inkor qilmaydi<sup>2</sup>.

O‘tilgan mavzuni mustahkamlash uchun “Aqliy hujum” metodidan foydalansak bo‘ladi. Negaki, bu metod 5-sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlariga ham mos bo‘lib, ularning darsga bo‘lgan qiziqishini yanada oshiradi. O‘tilgan mavzu asosida tuzilgan savollar mavzuni qanday darajada o‘zlashtirganliklarini aniqlash uchun xizmat qiladi.

### “Aqliy hujum” metodi

<sup>1</sup> Toipov O‘. Q., Usmonbekova M. Pedagogik texnologiyalarning tafbiqiy asoslari. T.;2006, Fan.50-bet.

<sup>2</sup> Ahmedov S., Qosimov B, Qo‘schorov R., Rizayev Sh. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinf uchun darslik-majmua. Sharq. – T.: 2020

1. Alisher Navoiy qachon va qayerda tavallud topgan?
2. Navoiyning bolalik yillari to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
3. Alisher Navoiyning taxalluslarini sanab bering va ularning ma’nosini izohlang.
4. Mavlono Lutfiy Alisher Navoiyning qaysi satrlar bilan boshlanuvchi she’rini tinglab, qoyil qolgan?
5. Navoiyning mактабdosh do‘sni Husayn Bayqaro taxtga chiqishi bilan Navoiy qanday lavozimga tayinlanadi?
6. Nechanchi yillar oralig‘ida Navoiy Astrobodda hokim bo‘ladi?
7. Alisher Navoiy nechta she’riy devon tuzgan?
8. Navoiy oilasi bilan Iroqqa ko‘chayotganda yo‘lda kimni uchratishadi?
9. Alisher Navoiy necha yoshidan boshlab she’rlar mashq qila boshlagan?
10. Alisher Navoiy qachon va qayerda vafot etgan?

“Aqliy hujum” metodi o‘quvchilarni biror bir mavzuni chuqur o‘rganishlariga yordam berib, o‘quvchilarni mavzuga taaluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin esga olishga yordam beradi. Shuningdek, o‘tilgan mavzuni mustahkamlash, yaxshi o‘zlashtirish, umumlashtirish hamda o‘quvchilarni shu mavzu bo‘yicha xulosalar chiqarishga undaydi. O‘qituvchi yangi mavzuni tushuntirib berish uchun audio materialdan foydalaniши mumkin. Bundan tashqari “Sher bilan durroj” multfilmidan parcha qo‘yib berish ham o‘quvchilarning mavzuni yanada yaxshiroq o‘zlashtirishini ta’minlaydi. Audio material qo‘yib berilganidan so‘ng o‘quvchilarga quyidagi savollarni berish, ularni mavzu yuzasidan mulohaza qilishga undaydi.

### O‘YLAB KO‘RING!



- Sham bilan parvona, sozlangan va sozlanmagan cholg‘uning rostlik va egrilikka qanday aloqasi bor?
- Qo‘li egri odamni qayerda, qachon va qanday jazolaganlar?
- Sher majoziy obrazida qanday insonlarga xos jihatlar mujassamlashgan? Durrojda-chi?
- Ahil yashash, qo‘sniichilik munosabatlari haqida o‘z tushunchalariningizni so‘zlang.
- Qanday illatlar durrojni fojiaga olib keldi va nima uchun do‘sni yordamga kelmadи?
- Adashib yoki qizishib yolg‘on gapirgan yoki ont ichgan odamga qanday munosabatda bo‘lish lozim?
- Rost so‘z, to‘g‘ri yashash haqidagi g‘oyalari ilgari surilgan yana qanday asarlarni bilasiz?

Yangi mavzuni mustahkamlash uchun “Voqea- sabab – oqibat” metodidan ham foydalanishimiz mumkin. Ushbu metod o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

<b>Voqea</b>	<b>Sabab</b>	<b>Oqibat</b>
1.Sher bolasini tishida asrab yurar edi.	Chumolilardan asrab yurar edi. Negaki, ular sher bolasini talab o‘ldirishar edi.	Sher seskanib ketsa, tishi bolasiga botar, uni yarador qilar edi.
2.Sher durrojga do‘stlashishni taklif qildi.	Bolasiga zarar yetmasligi uchun	Sher bilan durroj do‘stlashishdi. Sher bolasizi aziyat chekmaydigan, durroj erkin uchadigan bo‘ldi.
Durroj yolg‘on kuylar pandni eshitmas edi.	U yoshligidan shunga o‘rgangan edi.	Durrojni umri qirqildi.

Birinchi ustunda sodir bo‘lgan voqea aks ettirilsa, ikkinchisida uning sababi, uchinchisida esa oqibati aks ettiriladi. O‘quvchilar shu ketma-ketlikda davom etishadi. Ushbu metod o‘rganilayotgan mavzu haqida tushuncha va tasavvurlarni aniqlash imkonini beradi va o‘quvchilar tajribasidan foydalanishni ko‘zda tutadi, reflektiv kuzatishlarni amalga oshiradi, faol ijodiy izlash va fikriy tajriba o‘tkazish imkoniyatini yaratadi.

O‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarning asarni qanchalik e’tibor bilan o‘qiganliklarini aniqlash hamda asar badiiyatini ochishga katta xizmat qilgan nutqiylar va ashyoviy detallarning qay darajada o‘zlashtirilganligini bilish maqsadida ularga “Chala xat” beriladi. Unda o‘quvchilar o‘zlarining sinchkovliklarini namoyon qiladilar va topshiriqni yozma bajaradilar.

### Xotirani charxlash usuli

“Sher bilan durroj”

To‘qayda bir yirtqich .... bor edi. Vahshatda osmon sheridek qo‘rqmas edi. U har safar bolalaganda zavqqa to‘lar, biroq ... uning bolasini talab o‘ldirishardi. Shuning uchun u o‘zining ajralmas bu boyligi - farzandini ... asrar edi. O’sha to‘qayda bir ... ham bo‘lib, bu yirtqich sherning vahmidan doim qo‘rquvda edi. Sher ... pisib yotgan joyga borib qolsa bu notavon pir etib uchar, sher qo‘rqanidan seskanib ketar, bolasiga ham ... tishi botib ketardi. Tishi bilan ... varador cilardi

Ushbu metod o‘quvchilarni fikriy bog‘liqlik, mantiq, xotiraning rivojlanishiga imkon yaratadi. Bundan tashqari o‘quvchilarga mustaqil bilimi, o‘rganilayotgan mavzu haqida tushuncha va tasavvurlarini aniqlash imkonini beradi. Negaki, adabiyot metodikasi ilmi har bir adabiyot darsi oldiga tarbiyaviy, ta’limiy, yo‘naltiruvchi va rivojlantiruvchi maqsadlar qo‘yilishi lozimligini ko‘zda tutadi. Bu xil maqsadlar to‘g‘ri belgilab olinsa, dars jarayoni shu asosda tashkil etilsa, o‘quvchilarning ma’nana sog‘lomlashuvi uchun ulkan imkoniyatlar paydo bo‘ladi.<sup>3</sup>

### HIKOYADAN XULOSA:

- **Yolg‘onchilik jazosiz qolmaydi. Albatta, yolg‘onchi o‘z boshiga kulfat keltiradi.**
  - Ulki shior ayladi yolg‘on demak, Bo‘lmas ani er-u musulmon demak.
  - Kimki o‘zi ayladi yolg‘on so‘zin, Kizb, der el, chin desa, yolg‘on so‘zin.
  - Necha zarurat aro qolg‘on chog‘i, Chin demas ersang, dema yolg‘on dog‘i.



### XULOSA

Demak, mavzu yuzasidan shunday xulosa qilishimiz mumkinki, hikoyatda obrazlar ramziy tabiatga ega bo‘lsa-da, ular hayotiyligi bilan o‘quvchi yodida qoladi. Bu hikoyatda sher – ham jismonan, ham ruhan kuchli, ayni vaqtida bolalariga cheksiz mehrli, ular uchun har narsaga tayyor fidoyi insonlar ramzi bo‘lsa, durroj hayotga yengil-yelpi qarovchi, yolg‘onchilikni kundalik mashg‘ulotga aylantirib olgan kimsalar timsolidir<sup>4</sup>.

Xulosa qilib aytganda, barcha pedagogik texnologiyalar – o‘quvchini mustaqil o‘qishga, bilim olishga, fikrlashga o‘rgatishni kafolatlaydigan jarayondir.

<sup>3</sup> Q.Husanboyeva, R. Niyozenmetova Adabiyot o‘qitish metodikasi. T.:2008, Barkamol fayz media.145-bet.

<sup>4</sup> Ahmedov S., Qosimov B, Qo‘schorov R., Rizayev Sh. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim maktabalarining 5-sinf uchun darslik-majmua. Sharq. – T.: 2020

Yuqorida foydalanib o‘tilgan, “Aqliy hujum” “Voqeа-sabab-oqibat” metodlari, “Chala xat” xotirani charxlash usullari o‘quvchilarga yangi mavzuni yaxshi o‘zlashtirishlariga yordam beradi, hamda mavzu yuzasidan mustaqil fikr paydo bo‘lishida ko‘maklashadi. Negaki, bugungi kunda erkin va mustaqil fikrlovchi, ijtimoiy-siyosiy hayotda ongli ravishda faol ishtirok etishga qodir yosh avlodni shakllantirish bugungi ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir.

## **REFERENCES**

1. Toipov O‘. Q., Usmonbekova M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari.T:,2006, Fan.50-bet.
2. Ahmedov S., Qosimov B, Qo‘shqorov R., Rizayev Sh. Adabiyot. Umumiyl o‘rta ta’lim mакtablarining 5-sinf uchun darslik-majmua. Sharq. – T.: 2020
3. Karimov N., Mirzayev T., To‘xliyev B., Karimov B., Do‘stqorayev B., Matjonov S., Sayyid S. Adabiyot fanidan o‘quv dasturi. 9-sinflar uchun. Toshkent.2008 yil.
4. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi. T:,2008, Barkamol fayz media.145-bet